

## HOZIRGI KUNDAGI DOLZARB EKOLOGIK MUAMMOLAR

**Axmadjonova Gulnoza Axadjon qizi**

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy Fanlar Fakulteti Biologiya  
yoʻnalishi 202-guruh talabasi.

### ANNOTATSIYA

Ekologik muammolar va ularni oldini olish haqida batafsil maʼlumotlarga ega boʻlasiz.

**Kalit soʻzlari:** ekologiya, suv, sanoat, transport, jamiyat, oʻsimlik, hayvon, gazlar.

### АННОТАЦИЯ

Вы получите подробную информацию об экологических проблемах и их предотвращении.

**Ключевые слова:** экология, вода, промышленность, транспорт, общество, растительность, животное, газы.

### ABSTRACT

You will get detailed information about environmental problems and their prevention.

**Keywords:** ecology, water, industry, transport, society, vegetation, animal, gases.

Markaziy Osiyoda mintaqaviy ekologik muammolardan eng muhimi Orol va Orol boʻyi ekologik muammosidir. Bundan tashqari, Respublikada keskin boʻlib turgan ekologik va tabiatni muxofaza qilishga oid muammolarga:

Yirik - hududiy-sanoat majmualari joylashgan tumanlarda ( Angren - Olmaliq – Chirchiq, Fargʻona – Margʻilon, Navoiy) tabiatni muxofaza qilish muammolari;

Agrosanoat majmuyidagi ekologik muammolar;

Oʻsimlik va hayvonot dunyosini muhofaza qilish va qayta tiklash muammolari, qoʻriqxonalar va milliy bogʻlar tarmogʻini kengaytirish kabi muammolar kiradi.

Mahalliy ekologik muammolarga xalq xoʻjaligining barcha tarmoqlari, ayniqsa, sanoatda va transportdan “chiqindi” deb nom olgan qoʻshimcha mahsulot ajralib chiqadi. Bu mahsulotlar respublikamizning baʼzi bir hududlarida koʻp chiqarilmoqda va natijada, tabiatni bulgʻab, barcha tirik organizmlar, xususan inson salomatligi

uchun zarar keltirmoqda. Ana shunday atmosfera havosini buzadigan chiqindilarga tutun va har xil zaharli gazlar kirib, ular ko‘pincha Olmaliq, Angren, Farg‘ona, Qarshi, Samarqand, Navoiy, Jizzax, Toshkent, Chirchiq, Bekobod va hu kabi sanoati rivojlangan, transport qatnovi katta bo‘lgan shaharlar havosini ifloslantirmoqda.

Havodagi ifloslanishning 70-80 % avtomashinalarga to‘g‘ri keladi.

Yu. V. Novekov, Beknazarovlarning (1983) yozishicha avtomobillar havoga 200dan ortiq turli aerozol zarrachalarini chiqaradi. Har bir avtomobilga bir yilda 200 kg (asosan bezin) va 300ming kg havo sarflanadi. Ana shu yonilg‘idan bitta avtomobil havoga bir yilda 700kg uglerod oksidi, 230kg yonmagan uglevodlar, 30kg azot oksidi va 2-5 kg qattiq moddalar chiqaradi.

Tirik tabiatdagi o‘simlik va hayvon turlari sonining qisqarishi muammosi. Yer yuzida hayotni ta‘minlashda o‘simliklar dunyosi, ayniqsa, o‘rmonlarning ahamiyati beqiyosdir. Hozirgi vaqtda yer yuzi quruqlikning 25% ini o‘rmonlar tashlik etadi. Biroq hozirgi kunda o‘rmonlarning holatini yaxshi deb bo‘lmaydi. Chunki har yili 3mlrd m<sup>3</sup> hajmda o‘rmonlar qisqarmoqda. FAO ma‘lumotlariga ko‘ra bu ko‘rsatkich yaqin yillar orasida 1,5 martaga ortishi mumkin.

Insoniyatni, ayniqsa, tropik va subtropik o‘rmonlar muammosi tashvishga solmoqda. U yerlarda yiliga dunyo miqyosidagi qirqilishi kerak bo‘lgan o‘rmonlarning yarmidan ko‘pi kesib tashlanmoqda. 160mln gektar tropik o‘rmonlar vayron bo‘lgan, atigi 11mln gektar tiklanmoqda. Floraning kamayib ketishi “Qizil kitob” yaratilishiga sabab bo‘ldi.

Yo‘qolish xavfidagi turlar soni ( Xalqaro „Qizil kitob” majmuoti bo‘yicha

t/r	Taksonlar	Turlar	Kenja turlar	Jami	Umumiy turlar soniga nisbatan % hisobida
1	Sutemizuvchilar	227	93	320	6,2
2	Qushlar	264	167	431	4,6
3	Sudralib yuruvchilar	74	61	135	1,8
4	Amfibiyalar	34	7	41	2,8
5	Chuchuk suvdagi baliqlar	169	25	194	3,5
6	Yuksak o‘simliklar	25000	Dan	kam emas	10dan kam emas

Aholi soninig ortishi, xo‘jalik faoliyatning kengayishi tufayli tabiatning inson qo‘li tegmagan joyi qolmayapti. Hayvonlarning asosiy ko‘payish hududlari,

migratsiya qiluvchi yo'llari, dam olish joylari tuyoqli hayvonlarning oziqlanish maydonlari su'niy qoplamlarga aylangan, suvlar bosib, mol boqib yoki haydab yuborilgan. Ayniqsa nam tropiklarda ko'pchilik hayvon turlarining qirilib ketishi kuzatilmoqda. (1)

Keyingi yillarda atmosfera tarkibida CO<sub>2</sub> miqdori ortib borayotganligi ma'lum bo'lib qoldi. Natijada 100 yil ichida yer yuzasining harorati 0,5-1,0<sup>0</sup>C ortdi. Iqlimning keng ko'lamli o'zgarishi atmosferaning sanoat chiqindilari va avtotransportlardan chiqayotgan gazlar bilan bog'liq. Yer yuzasining global isishi, ya'ni "atmosfera dimiqishi" CO<sub>2</sub> ning havo tarkibida ortib ketishi, o'rmonlarning kesilishi, toshko'mir va benzin kabi yonilg'ilarni yonishidan atmosferada to'planadigan CO<sub>2</sub> gazi tufaylidir. (2)

### **XULOSA**

Hozirgi paytda ekologik vaziyat dunyoni larzaga solayotgan muammolardan biri bo'lmoqda. Bu vaziyatga ko'p insonlar befarq bo'layotgani bu muammolarni keskinlashtirmoqda. Bularga misol qilib sababsiz ko'plab daraxtlarni kesilishi, xazonlarni yoqilishi, suvni isrof qilishimiz bu bizni butun jamiyatga balki kelajak avlodga ham eng katta ziyonimizdir. Biz insonlarga ekologik ongni rivojlantirishimiz zarur. Har bir inson bu jamiyatning uzluksiz bo'lagi ekanligini anglagan holda oz bo'lsada ekologiyaga o'z hissasini qo'sha bo'lsa ekologiyamizda sezilarli o'zgarishlar ko'rgan bo'lardik. Hozirgi kundagi juda ko'p ekologik muammaolarning asosiy sababchisi bizmiz. Shahar va qishloqlarda sanoatni rivojlanishi aholini ijtimoiy ehtiyojlarini yaxshilasa, ulardan chiqayotgan chiqindilar atrof muhitga sezilarli darajada zarar keltirmoqda. Bularni havoni judayam ifloslanib ketganligidan ham ko'rishimiz mumkin. Bunday vaziyatlar davom etaversak keyingi yuz yillikda biz yonimizda kislorod apparatlari bilan yurishga kelib qolmasak deb qo'rqaman. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ham ekologik muammolarga juda katta e'tibor beryapti. Biz bu harakatlarga muvofiq yoshlar ongiga ekologiya qanday katta muammo ekanligini uqtirishimiz kerak. Radiolarda, televideniye, gazeta, jurnallarda axborot berishdan tashqari turli xil konferensiya va ekologiyaga oid tanlovlarni ko'paytirsak biz ekologik muammolar haqida ko'pchilikka ma'lumot bera olgan bo'lamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Hamdamov, Z. Bobomurodov, E. Hamdamova „, Ekologiya'' Toshkent 2009-yil 13-15 bet.
2. A.Ergashev, M.T. Yulchiyiva, O'.A. Ahmedov, A, Abzalov „,Ekologiya'' Toshkent 2018-yil 52-57 bet.